

Munis hayoti va ijodi

Azizova Nigora TDSHI 2 kurs magistranti

Annotatsiya

Maqolada Shermuhammad Munis hayoti va ijodi haqida gap boradi.

XVIII asrning oxiri va XIX asrning birinchi yarmida Xorazmda yashab ijod etgan iste'dodli shoir, tarixchi, mohir tarjimon, hattot bo'lgan Munisning asl ismi Shermuhammad Avazbiy o'g'lidir. Munis Shermuhammadning adabiy taxallusi bo'lib, "ulfat," "hamdam", "do'st" ma'nolarini bildiradi. Munis 1778 yilda Xiva yaqinidagi Qiyot qishlog'ida saroy amaldori Avazbiy (Avazbiy saroyning bosh mirobi bo'lgan) oilasida tug'ilgan. Muhammad Rahim I taxtga o'tirgach, Munis bosh mirob lavozimiga tayinlanadi. U 1829 yil vabo kasaliga chalinadi va vafot etadi. Shoirning qabri Qiyot qishlog'ida.

Munisdan bizga katta meros qolgan. Uning "Munis ul-ushshoq" devoni, "Firdavs ul-iqbol" tarixiy asari, "Savodi ta'lim" risolasi, mashhur tarixchi Mirxondning "Ravzat us-safo" asari I jildining to'liq va II jildi ayrim qismlarining tarjimai yetib kelgan. Xorazmning sug'orish tarmoqlari haqida "Arnalar" asari mavjudligi to'g'risida ham ma'lumotlar bor.

Munis yosh bo'lishiga qaramay, Sharqda fors-tojik va o'zbek adabiyotida shuxrat qozongan bo'lib, buyuk shoirlarning asarlarini qunt bilan o'rganib, o'qib mutaola qilgan. Dastlab ularga o'xshatib she'rlar yozishga harakat qilgan. Keyinchalik esa o'zi mustaqil g'azallar, ruboiy, tuyuq, muhammas, mustazod, qasida, chistonlar yaratadi. Munisning adabiyotga bo'lgan havasini oshirishda o'sha zamonning ulamolaridan Kiromiy, Ravnaq va boshqa ko'plab ustozlarning o'zni beqiyosdir.

Chunonchi, Munis Mavlono Kiromiyning shoirlikda o'ziga ustoz bo'lganini bir she'rda quyidagicha bayon etgan:

Tong emas Munis, agar bo'lsam kiromi kadr kim,

Ustodi zoxiru botin Kiromiydur mango...

Munisning tarixiy asarlarga bo'lgan qiziqishi ancha erta boshlangan. Uning tarixiy asari hisoblangan “Firdavs ul-iqbol” asarini Eltuzarxon buyrug'iga ko'ra yozishga kirishgan. Asar besh bob va xotimadan iborat. Biroq Munis bu tarixiy asarining muqaddimasi va ayrim boblarini (Muhammad Rahimxon xonligining bir necha yilini o'z ichiga olgan voqealar, ya'ni 1813 yilgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oluvchi qismini) yozishga ulgurgan, xalos. “Firdavs ul-iqbol” ning qolgan qismini Ogahiy yozib tugatgan.¹

Munisning “Firdavs ul-iqbol” asari haqida N.N.Muravyev, A.I. Butakov, N.I. Veselovskiy, V.V Bartold, P.P Ivanov, S.P Tolstov, K.Jitov, Ya. G'ulomov, M. Yo'ldoshev va Q. Munirov kabi ko'pgina sharqshunos va tarixchilar asarlarida qimmatli fikrlarni ko'rishimiz mumkin.

“Firdavs ul-iqbol”da XVIII asrning oxiri va XIX birinchi yarmida Xorazm diyoridagi tarixiy, madaniy va adabiy muhit, uning ayrim namayondalari haqida, Xorazm xonlari hukmronligi davrida bo'lib o'tgan ba'zi bir voqealar, xonlarning turli viloyatlarga yurishlari, o'sha davrda qurilgan turli imorat va inshootlarning bunyod etilishi turkman va qoraqalpoq xalqlari tarixiga doir manbalar bor. Biroq, Munisning dunyoqarashi (ayni paytda tarixchi sifatida) cheklangan bo'lib, xon va uning yaqinlarini ko'pincha maqtaydi, ularning bosqinchilik, talonchilik siyosatlarini qoralaydi, u o'z ozodligi va mustaqilligi uchun kurashgan boshqa xalqlarning xatti-harakatlarini yomonlaydi. Bu narsalar “Firdavs ul-iqbol”da yaqqol ko'zga tashlanadi.²

Munis o'z asarlarida o'zi yashab turgan zamonida ro'y berayotgan voqea-hodisalarni to'liq aks ettirishga, xususan xalq manfaatlarini ko'proq aks ettirishga harakat qiladi. Har bir insonning bir zaif nuqtasi bo'lganidek, keyinchalik

¹ Munirov.Q “Munis, Ogahiy va Bayonining tarixiy asarlari”, Toshkent, 1960

² Valixo'jaev B. “O'zbek adabiyotshunosligi tarixi” (X-XIX asrlar), Toshkent, “O'zbekiston nashriyoti” 1993

Munisning ham zaif nuqtasi ko'rina boshlaydi. Buni ayniqsa tabiat va jamiyatga bo'lgan qarashlarida yaqqol ko'rishimiz mumkin. U ba'zan xudojo'ylikga kirishib ketadi, shohlikni iloxiyat bilan bog'laydi, ayrim paytlarda saroyga yon bosadi, ba'zida esa saroy ahlining kayfiyatini madh etadi. Buni Munisning qasida va tarixiy asarlarida ko'rishimiz mumkin.

Munis badiiy ijodini ommaga taqdim etishda Munisning P.Shamsiyev tahriri ostida nashrdan chiqarilgan "Tanlangan asarlari" katta ahamiyatga ega. Chunki bu kitob birinchi marta Munis poeziya³(yun.poieo, poiesis-ijod qilmoq)sining mazmunini tashkil etuvchi g'azallari, mustazodlar, muhammas, musaddas, ruboiy va tuyuqlari hamda "Savodi ta'lim" ilmiy-pedagogika asari bilan yaqindan tanishish imkonini beradi. Unda shoirning 2308 baytdan iborat she'r va g'azallari, 304 baytdan iborat mustazodlar, muhammas, musaddas, ruboiy va tuyuqlari 186 baytdan iborat "Savodi ta'lim" risolasi, ja'mi 2798 bayt yoki 5596 misra poetik asarlari berilgan.⁴

Munis qisqa umr ko'rgan bo'lsa-da, bizga juda katta adabiy meros qoldirgan. Umri davomida ikki devon tuzgan. Birinchisi 1804 – 1805 yillarda jamlangan. U ilmda "Ilk devon" nomi bilan yuritiladi. Ikkinchisi devoni esa 1813 – 1814 yillarda jamlangan bo'lib, "Munis ul-ushshoq" deb nomlangan. "Munis ul-ushshoq" devoni debocha bilan boshlanadi. Bu devonda o'sha davrda unga yaqin hisoblangan odamlar, ayniqsa Qutlug' Murod (Muhammad Raximxonning akasi)ning maslahati va qistovi bilan birinchi devonidagi, keyinroq yozgan asarlarini jamlab yaxlit bitta devon tuzadi va bu devonni "Munis ul-ushshoq" ya'ni "Oshiqlar do'sti" deb nomlaydi. Bu devonda 8500 baytga yaqin poetik asarlar joy olgan. "Munis Ul-ushshoq" devoni turli xattotlar tomonidan ko'chirilgan, toshbosmalarda bosilgan bir necha nusxalari mavjud.⁵ Munis qo'lyozmalarining asosiy qismi Hozirda O'zbekiston fanlar akademiyasi Abu Rayxon Beruniy nomidagi sharqshunoslik institutida saqlanmoqda.

³ Quronov D, Mamajonov, Sheraliyeva M. "Adabiyotshunoslik lug'ati", Akademnashr 2010

⁴ Hayitmetov A. "Munis she'rlari", "O'zbekiston nashriyoti", 1958 yil 23 iyul

⁵ Ahmedov T. "Munis", Toshkent, "Fan" nashriyoti 1980

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Munis ijodining asosiy mohiyatini uning o'z davridagi xon, vazir va beklarga shayx va zohidlarga shavqatsiz munosabatda bo'lish, shoir va olimlarni, hunarmand va mehnat ahlini samimiy kuylash, adolatsizlikni, jaholatni keskin fosh etish, ilmga muhabbat, hunarga e'tiqod, ijodkor ahliga hurmat, do'stlik va samimiy muhabbatni ulug'lash, insonparvarlik, mardlik, shavqat, insof, marhamat, oliyjanoblik kabi g'oyalarni tashkil etadi.

Munis garchi uzoq umr ko'rmagan bo'lsa-da, ustoz shoir darajasigacha ko'tarila olgan. Buni uning o'zi shunday izohlaydi:

Muniski, so'z iqlimi anga bo'ldi musaxxar,
Surtarlar aning hoki rahig'a shuaro ko'z.

Nazm aro, Munis, to'kar qilkim balog'at shakkarin,
Kim shakar lablar qilurlar orzu va shakkarim.

Munis chindan ham Хоразмда, shu bilan bir qatorda o'sha davr o'zbek adabiyotida, yirik shoirlardan biri bo'lgan desak mubolag'a bo'lmaydi.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1.

Darsliklar

O'quv qo'llanmalar

Ilmiy monografiya, maqolalar va boshqa asarlar

Doktorlik, nomzodlik va magistrlik dissertatsiyalari

Ilmiy-amaliy anjumanlar ma'ruzalari to'plamlari

Foydalanil gan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ahmedov T. "Munis", Toshkent. "Fan " nashriyoti. 1980.
2. Valixo'jaev B. "O'zbek adabiyotshunosligi tarixi" (X-XIX asrlar), Toshkent, "O'zbekiston nashriyoti" 1993.
3. Hayitmetov A. "Munis she'rlari", "O'zbekiston", 1958 yil 23 iyul
4. Munirov.Q "Munis, Ogahiy va Bayonining tarixiy asarlari", Toshkent, 1960.

5. Quronov D, Mamajonov, Sheraliyeva M. “Adabiyotshunoslik lug’ati”
Akademnashr 2010

Internet saytlari:

1. http://referat.arxiv.uz/files/44246_shermuhammad-munis.-munis-ul-ushshoq-devoni.html